

*i.f.d., dots. Akramjon KARIMOV, PhD dots, v.b. Shoxyora OTAXONOVA,
Abror NURNAZAROV, Ulug'bek JUMAYEV
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*

ISLOM MOLIYASI MODELI ASOSIDA MOLIYA BOZORINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

Annotatsiya. Maqolada islomiy moliya modeli asosida moliya bozorini rivojlanirishning nazariy va amaliy asoslari keng yoritilgan bo'lib, xalqaro va milliy iqtisodchi olimlarning qarashlari hamda statistik ma'lumotlar asosida chuqr tahlil qilinadi. Islomiy moliyaning global miqyosda aktivlari yil sayin barqaror o'sib borayotgani, ushbu jarayonning jahon moliyaviy barqarorligiga qo'shayotgan hissasi hamda rivojlangan davlatlar tajribasi O'zbekiston sharoitida qo'llanish imkoniyatlari ilmiy asoslab beriladi. Raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali moliya bozorida samaradorlikka erishish, inklyuzivlikni ta'minlash va yangi investitsion imkoniyatlarni shakllantirish mexanizmlari muhokama qilinadi. O'zbekiston olimlari tomonidan ilgari surilgan ilmiy qarashlarga tayanib, islomiy moliyaning milliy moliya tizimini diversifikatsiya qilishdagi va barqaror iqtisodiy o'sishga xizmat qiluvchi muhim omil sifatidagi o'rni asoslanadi. Xulosa qismida esa, islomiy moliya bozorini rivojlanirish uchun institutsional islohotlarni jadallashtirish, xalqaro tajribadan foydalanish hamda innovatsion moliyaviy texnologiyalarni integratsiya qilish zarurligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: islomiy moliya; moliyaviy inklyuziya; moliya bozori; barqaror rivojlanish; raqamli texnologiyalar; investitsiya salohiyati; moliyaviy barqarorlik; innovatsion yondashuv; moliyaviy institutlar; global moliya bozori; islomiy banklar; diversifikatsiya; xalqaro tajriba; aktivlar hajmi; milliy iqtisodiyot.

DEVELOPMENT PATHS OF THE FINANCIAL MARKET BASED ON THE ISLAMIC FINANCE MODEL

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the theoretical and practical foundations of developing the financial market based on the Islamic finance model, drawing on the perspectives of international and national economists as well as statistical evidence. The paper emphasizes the steady growth of Islamic finance assets worldwide, its contribution to global financial stability, and the potential application of advanced international practices to the context of Uzbekistan. It also highlights the role of digital technologies in enhancing efficiency, ensuring inclusiveness, and creating new investment opportunities within the Islamic financial market. Building on the insights of Uzbek scholars, the

article substantiates the role of Islamic finance as a key factor in diversifying the national financial system and fostering sustainable economic growth. The conclusion underlines the necessity of accelerating institutional reforms, adopting global best practices, and integrating innovative financial technologies to advance the Islamic finance market in Uzbekistan.

Keywords: islamic finance; financial inclusion; financial market; sustainable development; digital technologies; investment potential; financial stability; innovative approach; financial institutions; global financial market; Islamic banks; diversification; international experience; asset growth; national economy.

Kirish

So‘nggi yillarda global moliya bozorida barqarorlik vaadolat tamoyillariga asoslangan islam moliyasi modeli tobora ko‘proq e’tibor qozonmoqda, chunki u nafaqat diniy talablarga, balki iqtisodiy manfaatdorlik va ijtimoiy adolatga ham xizmat qiladi. Ushbu model foizli qarzlashuvni inkor etib, risklarni taqsimlash va aktivlar bilan ta’minlangan moliyaviy vositalardan foydalanishni nazarda tutadi, bu esa real sektorga yaqinlashishni kuchaytiradi. Jahon banki va Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yilda islamiy moliya aktivlari hajmi 3,5 trillion AQSh dollaridan oshdi va yillik o’sish sur’ati 10–12 foizni tashkil etdi[1, 2]. Shu jihatdan qaralganda, islam moliyasi global moliya tizimida muhim o‘rin tutayotgan bo‘lib, u barqarorlikka intilayotgan mamlakatlar uchun jozibali alternativani taklif etadi.

O‘zbekistonda ham moliya bozorini modernizatsiya qilish jarayonida ushbu modelni joriy etish bo‘yicha dastlabki huquqiy va institutsional asoslar shakllanmoqda. 2024-yilda qabul qilingan nizomda islamiy bank xizmatlarini yo‘lga qo‘yish va investitsiya fondlarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratildi[3]. Shu sababli, islam moliyasi nafaqat diniy omillar, balki iqtisodiy zaruriyat sifatida ham ko‘rilishi lozim. Bu esa moliya bozorining diversifikatsiyasiga, kapitalning samarali taqsimlanishiga va ijtimoiy barqarorlikning mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Demak, islam moliyasi modeli asosida moliya bozorini rivojlantirish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarbdir.

Islam moliyasi konsepsiyasi o‘z mohiyatiga ko‘ra nafaqat moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish vositasi, balki ijtimoiy mas’uliyat va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash mexanizmi sifatida qaraladi. Bu modelda moliyaviy vositalar real aktivlarga asoslanib, spekulyativ operatsiyalar va haddan tashqari risk olish amaliyotlari qat’iyan cheklanadi. Masalan, sukuk (islomiy obligatsiyalar)

bozori so‘nggi o‘n yillikda jadal rivojlanib, Malayziya, Saudiya Arabistoni va BAA moliya tizimining asosiy qismi sifatida shakllandi. Hisob-kitoblarga ko‘ra, faqatgina 2022-yilda sukuk emissiyasi hajmi 182 milliard dollardan oshdi, bu esa an’anaviy obligatsiyalar bozoriga nisbatan ko‘plab investorlarga barqaror va xavfsiz imkoniyatlarni taqdim etdi[4]. Shu nuqtai nazardan, moliya bozorini islomiy model asosida rivojlantirish investitsiya oqimlarini kengaytirib, iqtisodiy o‘sishni jadallashtiradi. O‘zbekiston moliya bozorida ham xalqaro investorlarni jalb etishda sukuk kabi vositalarni joriy etishning istiqbollari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, bunday amaliyotlar milliy moliya tizimining xalqaro integratsiyasini chuqurlashtiradi va barqaror kapital oqimini ta’minlaydi. Demak, islomiy moliya modeli bozorni kengaytirish bilan birga, ijtimoiy manfaatlarni ham yuksaltirishni ko‘zda tutadi.

Hozirgi sharoitda global moliyaviy inqirozlar, foiz stavkalarining keskin o‘zgarishi va moliyaviy spekuliyatsiyalarning ko‘payishi islom moliyasi modelining afzalliklarini yaqqolroq namoyon qilmoqda. Bu tizimda asosiy tamoyillar — riskni adolatli taqsimlash, sheriklikka asoslangan moliyaviy operatsiyalar va jamiyat manfaatini ko‘zlash — iqtisodiy tizimning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Masalan, mushoraka va mudaraba kabi sheriklik shartnomalari real iqtisodiy faoliyatni rag‘batlantirib, moliya bozorining ishlab chiqarish bilan integratsiyasini mustahkamlaydi. Bunday yondashuv iqtisodiy o‘sishni faqat moliyaviy natijalar orqali emas, balki ijtimoiy va ma’naviy qadriyatlар orqali ham o‘lchash imkonini beradi. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2023-yilda e’lon qilingan tahlillarida islomiy bank amaliyotlarini bosqichma-bosqich joriy etish milliy moliya tizimiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi qayd etilgan[5]. Ayniqsa, aholi va tadbirkorlik subyektlari uchun kredit emas, balki sheriklik asosida moliyaviy qo’llab-quvvatlash mexanizmlarining kengayishi iqtisodiy faollikni oshiradi. Shu bilan birga, islom moliyasining joriy etilishi xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga ham xizmat qiladi, chunki ko‘plab yirik fondlar shariatga mos bo‘lmagan loyihalarga sarmoya kiritmaydi. Shunday qilib, islom moliyasi modeli iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy manfaatlarni uyg‘unlashtirishga xizmat qiluvchi dolzarb yo‘nalishdir.

Islom moliyasining rivojlanishi global kapital bozorida ham yangi imkoniyatlar yaratmoqda, chunki u faqat musulmon mamlakatlari uchun emas, balki global investorlar uchun ham jozibador platforma hisoblanadi. Buning sababi, islomiy moliya vositalari yuqori shaffoflikka, aktivlar bilan ta’minlanganlikka va risklarni adolatli taqsimlashga asoslanadi. Masalan, Thomson Reuters va Islomiy Moliya Taraqqiyot Korporatsiyasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-

yilga borib islomiy moliya aktivlari hajmi 4,5 trillion dollarga yetishi prognoz qilinmoqda[6]. Bu esa moliya bozorining global o'sishida ushbu segmentning ulushi ortib borishini anglatadi. O'zbekiston sharoitida islomiy moliya bozorini rivojlantirish kapitalni jalg qilish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanishini kengaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, islom moliyasi kambag'allikni qisqartirish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga ham alohida e'tibor qaratadi, chunki u faqat foyda olishni emas, balki ijtimoiy mas'uliyatni ham nazarda tutadi. Shu jihatdan, islomiy moliya modeli O'zbekistonning milliy rivojlanish strategiyasi va iqtisodiy islohotlari bilan uyg'unlashishi mumkin. Natijada, moliya bozorining raqobatbardoshligi oshib, xalqaro integratsiya jarayonlari jadallahashadi.

Islom moliyasi modeli asosida moliya bozorini rivojlantirish masalasi O'zbekistonda iqtisodiy o'sishni jadallashtirish va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashning ustuvor yo'nalişlaridan biri sifatida qaralmoqda. Bu modelning o'ziga xos jihat shundaki, u nafaqat moliyaviy barqarorlikni, balki iqtisodiy adolatni ham ta'minlaydi. Masalan, foizsiz moliyalashtirish mexanizmlari tadbirkorlar uchun qarz yukini kamaytirib, ishlab chiqarishni kengaytirishga imkon yaratadi. Bundan tashqari, islomiy moliyaning taqsimotga asoslangan vositalari, xususan zakot, qard hasan va vakf kabi institutlar ijtimoiy tenglikni kuchaytiradi va moliyaviy inklyuziyani ta'minlaydi. Islom Taraqqiyot Bankining O'zbekistondagi loyihalari ham bu jarayonni qo'llab-quvvatlab, infratuzilma va ijtimoiy sohalarda sezilarli natijalar bermoqda. Shu nuqtai nazardan, islomiy moliya modeli nafaqat moliya bozorining iqtisodiy jihatdan rivojlanishiga, balki mamlakatning ijtimoiy taraqqiyotiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, ushbu model milliy moliya tizimini global moliya arxitekturasi bilan uyg'unlashtirish imkonini beradi. Demak, O'zbekistonda moliya bozorini islomiy model asosida rivojlantirish ilmiy va amaliy tadqiqotlarni talab qiluvchi dolzarb masalalardan biridir.

Adabiyotlar sharhi

Islom moliyasining jahon miqyosida keng tarqalishiga asosiy sabab uning iqtisodiy barqarorlik, xavfsizlik va ishonchlikni ta'minlash qobiliyatidir. An'anaviy moliya tizimida uchraydigan spekulyativ faoliyat, haddan tashqari qarzlashuv va moliyaviy pufaklar ko'pincha inqirozlarni keltirib chiqarsa, islomiy modelda bunday amaliyotlar taqiqlanadi. Shu boisdan, 2008-yilgi global moliyaviy inqiroz davrida islomiy banklar ko'plab rivojlangan davlatlardagi an'anaviy banklarga nisbatan ancha barqaror faoliyat yuritganligi tadqiqotlarda ta'kidlanadi[7]. Bugungi kunda islomiy moliya institutlari nafaqat muslimmon

davlatlarda, balki Buyuk Britaniya, Germaniya va AQSh kabi rivojlangan mamlakatlarda ham faoliyat yuritmoqda. O‘zbekiston uchun esa ushbu modelni milliy moliya tizimiga integratsiya qilish iqtisodiy diversifikatsiya va xalqaro kapital oqimlarini jalb qilishning muhim vositasidir. 2022-yilda Islom Taraqqiyot Banki bilan hamkorlikda bir qator loyihalarni moliyalashtirish jarayonlari boshlangan bo‘lib, ular mamlakatda islomiy moliyaning amaliyotini sinovdan o‘tkazmoqda. Shu asosda, O‘zbekiston moliya bozorida yangi segmentni shakllantirish imkoniyati yuzaga kelmoqda. Demak, islomiy moliya modeli milliy iqtisodiyotning barqaror o‘sishiga hissa qo‘shuvchi muhim omil sifatida qaralishi lozim.

Iqtisodchilar Iqbal Z. va Mirakhor A.ning ta’kidlashicha, “Islom moliyasi konsepsiysi iqtisodiy barqarorlikni ta’minalash, moliyaviy inqirozlarning oldini olish va resurslarniadolatli taqsimlash uchun muhim mexanizmlardan biridir” [8]. Ularning fikriga ko‘ra, risk va foydaning adolatli taqsimlanishi moliyaviy bozorlarni yanada barqaror qiladi va moliyaviy spekulyatsiya xavfini kamaytiradi. Shuningdek, ular shariatga asoslangan moliya tizimi real iqtisodiyot bilan bevosita bog‘liq bo‘lishi sababli kapitalning samarali aylanishini ta’minalashini urg‘ulaydi. Fikrimizcha, ushbu yondashuv moliya bozorida barqaror investitsion muhit yaratishga va uzoq muddatli o‘sishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ushbu tamoyillar O‘zbekiston sharoitida islomiy moliya infratuzilmasini rivojlantirish uchun ham muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Chapra M. U. o‘z tadqiqotida shunday yozadi: “Islom moliyasi nafaqat shariatga mos moliyaviy mahsulotlar yaratishga, balki ijtimoiy adolat va iqtisodiy tenglikni ta’minalashga qaratilgan”[9]. Uning fikricha, moliyaviy tizimda foizsiz mexanizmlarning joriy etilishi, tadbirkorlik va sheriklik asosidagi moliyalashtirish usullari iqtisodiy faoliyatni rag‘batlantiradi. Bu tamoyillar iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash bilan birga, kambag‘allikni kamaytirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Fikrimizcha, Chapra ta’kidlagan ijtimoiy mas’uliyat jihatni islom moliyasi modelini nafaqat moliyaviy, balki ijtimoiy rivojlanishning ham samarali vositasiga aylantiradi. Shu bois, bu model O‘zbekiston moliya bozorida ijtimoiy yo‘naltirilgan investitsiyalarni kengaytirish uchun katta imkoniyat yaratadi.

Saeed A. va El-Gamal M. fikricha, “Islomiy bank xizmatlarining tez o‘sishi global moliya bozorlarida yangi muqobil moliyaviy instrumentlarning shakllanishiga sabab bo‘lmoqda”[10]. Ularning tadqiqotida sukuk emissiyasi, musharaka va mudaraba kabi shariat asosidagi vositalar nafaqat musulmon davlatlarda, balki Yevropa va Amerika moliya bozorlarida ham keng qo‘llanilayotgani qayd etilgan. Bu esa islomiy moliyan transmilliy fenomen

sifatida ko'rsatib, global kapital oqimlarini diversifikatsiyalash imkonini bermoqda. Fikrimizcha, O'zbekiston moliya bozorida ham ushbu instrumentlarni bosqichma-bosqich joriy etish xorijiy investitsiyalar oqimini jalb qilish uchun qulay sharoit yaratadi. Shu nuqtai nazardan, xalqaro tajriba mamlakatimiz uchun samarali model sifatida xizmat qilishi mumkin.

Hassan K. va Lewis M.ning ilmiy tadqiqotlarida "Islom moliyasi nafaqat iqtisodiy samaradorlik, balki axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy mas'uliyatni uyg'unlashtirgan holda rivojlanayotgan eng muhim moliya modeli sifatida qaraladi"[11]. Ularning ta'kidlashicha, islomiy moliya tamoyillari orqali resurslarni samarali taqsimlash va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash mumkin. Bu tizim ayniqsa inqiroz davrida yuqori chidamlilikni namoyon etishi bilan ajralib turadi. Fikrimizcha, mazkur tamoyillar O'zbekistonning iqtisodiy modernizatsiya jarayonida moliya bozorini barqarorlashtirish uchun asosiy nazariy yo'naliishlardan biri sifatida qo'llanilishi mumkin. Shuningdek, ularning ilmiy qarashlari islomiy moliya konsepsiyasining universal ahamiyatga egaligini tasdiqlaydi.

El-Hawary D. va Grais W.ning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, "Islomiy moliya bozorida tartibga solish va nazorat mexanizmlarining samarali tashkil etilishi ushbu sektorning uzoq muddatli rivojlanishini belgilovchi asosiy omillardan biridir"[12]. Ularning fikricha, shariatga mos reguliyativ muhit bo'lmasa, moliya bozorida islomiy instrumentlar samarali faoliyat yurita olmaydi. Shuningdek, ular xalqaro tajribaga tayanib, reguliyatsiya va nazorat tizimining investorlarga bo'lgan ishonchni kuchaytirishini alohida ta'kidlaydilar. Fikrimizcha, O'zbekiston uchun ham bu jihat muhim bo'lib, moliya bozorida islomiy mahsulotlarni rivojlantirish uchun huquqiy asoslarni takomillashtirish zarur. Natijada, bu jarayon iqtisodiy barqarorlik va investitsion jozibadorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Yurtimiz iqtisodchi olimlaridan O. Ahmadjonov va U. Xoliqurovning fikricha, "O'zbekistonda islomiy moliya tizimini joriy etish jarayoni mamlakat moliya bozorini diversifikatsiya qilish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish va aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi"[13, 14]. Ularning ta'kidlashicha, islomiy moliya instrumentlarini joriy etish uchun qonunchilik bazasini takomillashtirish, shariat kengashlari faoliyatini yo'lga qo'yish hamda bank tizimida maxsus mahsulotlarni yaratish zarur. Shuningdek, maqolada qayd etilishicha, islomiy moliyaning asosiy ustunligi moliyaviy spekulyatsiyaga yo'l qo'ymasligi va real sektor bilan bevosita bog'liq bo'lishidir, bu esa iqtisodiyot barqarorligini mustahkamlash imkonini beradi. Fikrimizcha, olimlarning ushbu ilmiy qarashlari O'zbekiston moliya

bozorini zamonaviylashtirish jarayonida islomiy moliyani muhim tarkibiy qism sifatida qarash imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqolada islom moliyasi modeli asosida moliya bozorini rivojlantirish yo'llari tahlil qilinib, uning iqtisodiyotdagi o'rni va ta'siri ilmiy-metodik yondashuvlar orqali ochib beriladi. Tadqiqot jarayonida sifatli va miqdoriy metodlar birgalikda qo'llanilib, avvalo islom moliyasi tamoyillariga asoslangan moliyaviy instrumentlarning — sukuk, musharaka, mudaraba, murabaha va takaful kabi mexanizmlarning samaradorligi o'rganiladi. Miqdoriy tahlil doirasida islomiy moliya institutlari faoliyati, sukuk emissiyasi hajmi, investitsiyalar oqimi va moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari kabi iqtisodiy indikatorlar baholanadi. Shu bilan birga, sifatli tahlil orqali shariat tamoyillari asosida tashkil etilgan moliyaviy vositalarning ijtimoiy adolatni ta'minlash, moliyaviy inklyuziyani kengaytirish va risklarni taqsimlashdagi o'rni o'rganiladi. Metodologiyada shuningdek, rivojlangan mamlakatlar tajribasi (Malayziya, Saudiya Arabiston, BAA) hamda O'zbekiston sharoitida islomiy moliya infratuzilmasini rivojlantirish imkoniyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Yakunda, iqtisodiy modellashtirish va empirik ma'lumotlar asosida islomiy moliya mexanizmlarining moliya bozorini barqarorlashtirish hamda uzoq muddatli milliy taraqqiyotga qo'shadigan hissasi ilmiy asoslangan holda yoritiladi.

Tahlil va natijalar

Islom moliyasi tushunchasi iqtisodiy adabiyotlarda keng yoritilgan bo'lib, u an'anaviy moliya tizimidan tubdan farq qiluvchi, shariat tamoyillariga asoslangan moliyaviy faoliyat tizimini anglatadi.

Islom moliyasi – bu Qur'on, Sunna va fiqh tamoyillariga asoslanib, foiz (ribo) olishni taqilovchi, spekulyativ va noaniq bitimlarni (gharar, maysir) chekllovchi hamda real aktivlar bilan ta'minlangan moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish tizimidir. Uning asosiy maqsadi nafaqat moliyaviy daromad olish, balki iqtisodiy faoliyatni ijtimoiy adolat, risklarni adolatli taqsimlash va iqtisodiy barqarorlikka xizmat qildirishdir. Ushbu modelda moliyalashtirish asosan sheriklik (mushoraka, mudaraba), ijaraga asoslangan bitimlar (ijara), hamda aktivlarga bog'langan vositalar (murabaha, sukuk) orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, islom moliyasi ijtimoiy tenglikni ta'minlash maqsadida zakot, qard hasan va vakf kabi taqsimot mexanizmlarini ham qamrab oladi. Jahon banki (2016) va Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (2017) hisobotlarida qayd etilishicha, islom moliyasi nafaqat

musulmon mamlakatlari, balki global moliya tizimida ham barqarorlik va investitsiya oqimini kuchaytirishga xizmat qiluvchi muhim alternativ model sifatida qaralmoqda[15]. Shu sababli, bugungi kunda uning rivojlanishi iqtisodiy diversifikatsiya, moliyaviy inkyuziya va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

1-jadval

Islom moliyasi tamoyillari

| Tamoyil | Mazmuni | Amaliy misol | Iqtisodiy ahamiyati |
|--|--|--|---|
| Ribo (foiz)ning taqiqlanishi | Har qanday foizli qarzlashuv taqiqlanadi; kapital foydaga sheriklik asosida jalg qilinadi. | Banklar kredit o'rniga murabaha (savdo asosida foyda qo'shib sotish) shartnomasidan foydalananadi. | Moliyaviy yuk kamayadi, qarz inqirozlar xavfi pasayadi, real sektor bilan bevosita aloqadorlik kuchayadi. |
| Risk va foydani adolatli taqsimlash | Tomonlar foyda va zararlarni kelishilgan ulushlarda bo'lishadi, risk bir tomonlama yuklanmaydi. | Mushoraka (sheriklik kapitali), Mudaraba (biri kapital, biri mehnat) asosida loyihamalar moliyalashtiriladi. | Tadbirkorlik rag'batlanadi, innovatsion faoliyat kengayadi, risk boshqaruvi yaxshilanadi. |
| Gharar (noaniqlik) va maysir (qimor)ning man etilishi | Haddan tashqari noaniqlik, spekulativ bitimlar va qimor o'yinlari taqiqlanadi. | Derivativlar yoki spekulativ valyuta bitimlari o'rniga faqat aktivlarga asoslangan bitimlar tuziladi. | Moliyaviy pufaklar xavfi kamayadi, bozor barqarorligi oshadi. |
| Aktivlar bilan ta'minlanganlik | Har bir moliyaviy operatsiya real aktivlarga (yer, bino, tovar) asoslangan bo'lishi lozim. | Ijara (ijaraga berish), sukuk (islomiy obligatsiya) orqali investitsiyalar amalga oshiriladi. | Real sektorni moliyalashtirish kuchayadi, iqtisodiy o'sish barqaror bo'ladi. |
| Halollik va shaffoflik | Har bir bitim aniq, adolatli va shariat talablariga mos bo'lishi kerak. | Shartnomalar shaffof tuzilib, tomonlarning huquq va majburiyatları oldindan belgilab qo'yiladi. | Investorlar ishonchi ortadi, korrupsiya va yashirin bitimlar kamayadi. |
| Ijtimoiy mas'uliyat | Moliyaviy faoliyat jamiyat manfaatiga xizmat qilishi shart, boylik adolatli taqsimlanishi kerak. | Zakot, qard hasan, vakf kabi mexanizmlar orqali kambag'allikka qarshi kurash amalga oshiriladi. | Ijtimoiy barqarorlik ta'minlanadi, moliyaviy inkyuziya kengayadi. |

Islom moliyasi tamoyillari mohiyatan moliyaviy munosabatlarni faqatgina iqtisodiy manfaatdorlik asosida emas, balki axloqiy, ijtimoiy va diniy me'yordarga asoslangan holda tashkil etishni nazarda tutadi. Ushbu tamoyillar pulni sof tovar sifatida ko'rmaydi, balki uni ishlab chiqarish jarayonida qo'llanilgandagina qiymat yaratadigan vosita sifatida talqin etadi, bu esa real sektorni qo'llab-quvvatlashga

xizmat qiladi. Shuningdek, risk va foydaning o‘zaro adolatli taqsimlanishi, kapital egalarining ham, tadbirkorlarning ham mas’uliyatini oshirib, iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga yordam beradi. Natijada, islomiy moliya tizimi nafaqat shariat qoidalariga mos keluvchi moliyaviy xizmatlarni rivojlantirishni, balki jamiyatda ijtimoiy adolat, moliyaviy barqarorlik va uzoq muddatli taraqqiyotga erishishni ham ta’minlaydi.


2-jadval

Islom moliyasi modeli asosida moliya bozorini rivojlantirish yo’llari

| Yo‘nalishlar | Asosiy mexanizmlar | Kutilayotgan natijalar | Amaliy misollar |
|---|---|--|---|
| 1. Sukuk bozorini rivojlantirish | Sukuk emissiyasini qonunchilik darajasida tartibga solish, davlat va xususiy sektorga chiqarish imkoniyatini berish | Uzoq muddatli infratuzilma loyihalari uchun barqaror moliyalashtirish manbai yaratiladi | Malayziya, Indoneziya va Saudiya Arabistonida suuk emissiyasi YaIMning 20–30% qismini moliyalashtiradi |
| 2. Islomiy bank xizmatlarini kengaytirish | Murabaha, mudaraba, musharaka va ijara asosidagi mahsulotlarni taklif qilish | Moliyaviy inklyuziya kengayadi, aholining diniy e’tiqodga mos xizmatlardan foydalanish imkoniyati ortadi | O‘zbekistonda Islom banki loyihalari, Qozog‘istonda Al-Hilal banki faoliyati |
| 3. Takaful (islomiy sug‘urta) tizimini joriy etish | Riskni taqsimlashga asoslangan shariatga mos sug‘urta mahsulotlari yaratish | Moliyaviy xavflarni kamaytirish, korxonalar va aholini himoya qilish imkoniyatlarini kengaytirish | Malayziyada takaful bozorining ulushi umumiyligi sug‘urta bozorida 16%ni tashkil etadi |
| 4. Halol investitsiya fondlarini shakllantirish | Shariat kengashlari tomonidan tasdiqlangan “halol” aktivlarga investitsiya qilish | Mahalliy va xorijiy investorlar uchun ishonchli investitsiya muhitini yaratadi | Halal indekslar asosida ishlaydigan fondlar (Dow Jones Islamic Market Index) |
| 5. Moliyaviy infratuzilmani isloh qilish | Islom moliyasi uchun alohida regulyator organlar, shariat kengashlari faoliyatini mustahkamlash | Moliyaviy bozor ishonchliligi ortadi, investorlar va iste’molchilarining huquqlari himoya qilinadi | AAOIFI (Accounting and Auditing Organization for Islamic Financial Institutions) standartlari asosida tartibga solish |
| 6. Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish | Islom taraqqiyot banki va boshqa xalqaro islomiy moliya institutlari bilan hamkorlik | Moliyaviy resurslar jalb qilinadi, bilim va tajriba almashinuvni kuchayadi | IDBning O‘zbekistondagi loyihalari, jumladan, infratuzilma va qishloq xo‘jaligi sektorini moliyalashtirish |

Islom moliyasi modeli asosida moliya bozorini rivojlantirish, avvalo, uning shariat tamoyillariga asoslangan mexanizmlarini chuqur integratsiya qilishni talab etadi, chunki bu jarayon nafaqat iqtisodiy barqarorlik, balki ijtimoiy adolatni ham ta'minlaydi. Sukuk emissiyasining kengayishi infratuzilma va yirik ishlab chiqarish loyihalarini uzoq muddatli resurslar bilan moliyalashtirish imkonini yaratadi, bu esa an'anaviy obligatsiyalarga nisbatan ko'proq shaffoflikni kafolatlaydi. Islomiy bank mahsulotlarining diversifikatsiyasi, jumladan murabaha, mudaraba, musharaka va ijara asosidagi xizmatlar, aholining diniy e'tiqodlariga mos holda moliyaviy inklyuziyani kengaytiradi va iqtisodiy faollikni oshiradi. Shu bilan birga, takaful tizimining joriy etilishi risklarni adolatli taqsimlash orqali korxona va aholini himoya qilish imkoniyatlarini kengaytirib, sug'urta bozorining samaradorligini oshiradi. Halol investitsiya fondlari va xalqaro hamkorlikning rivojlanishi esa xorijiy kapitalni jalb etish va milliy moliya bozorini global standartlarga moslashtirishga xizmat qiladi. Natijada, islomiy moliya tizimi iqtisodiy xavfsizlik, moliyaviy barqarorlik va uzoq muddatli milliy taraqqiyotning muhim vositasiga aylanadi.

Dunyoda islom moliyasi aktivlarining o'sishi so'nggi yillarda jadal sur'atlarda kechib, Global Islamic Finance Report ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda umumi hajmi 4,5 trillion AQSh dollaridan oshib, 2030-yilga borib 6,5–7 trillion dollarga yetishi proqnoz qilinmoqda. Ushbu o'sishning asosiy omillari sifatida musulmon aholi sonining ko'payishi, shariatga mos moliyaviy mahsulotlarga bo'lgan talabning ortishi hamda davlatlarning islomiy moliya infratuzilmasini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan siyosati ko'rsatib o'tiladi. Sukuk emissiyasi, takaful sug'urtasi va islomiy investitsiya fondlarining kengayishi global kapital bozorida islomiy moliyani tobora muhimroq o'yinchiga aylantirib, an'anaviy moliya tizimiga muqobil sifatida kuchaytirmoqda. Natijada, islom moliyasi nafaqat musulmon aholiga, balki axloqiy va shaffof investitsiya tamoyillariga qiziqqan xorijiy investorlar uchun ham jozibadorlik darajasini sezilarli oshirmoqda.



1-rasm. Dunyoda islom moliyasi aktivlarining o'sishi (2015 - 2021, milliard AQSH dollar)[¹⁶]

1-rasmda keltirilgan ma'lumotlar dunyo bo'yicha islom moliyasi aktivlarining barqaror va izchil o'sib borayotganini yaqqol ko'rsatib bermoqda, chunki 2015-yildagi 2,17 trillion AQSh dollaridan 2021-yilda 3,958 trillion dollarga yetishi o'sishning yuqori sur'atlarini tasdiqlaydi. Statistik ko'rsatkichlarga qaraganda, 2015–2018-yillar oralig'ida o'sish nisbatan barqaror bo'lsa, 2019–2021-yillar davrida o'sishning tezlashishi global bozorning islomiy moliya instrumentlariga qiziqishi ortidan dalolat beradi. Ayniqsa, 2019-yildan boshlab 114 foizlik o'sish kuzatilgani sukuk emissiyasining kengayishi va islomiy bank xizmatlarining jahon miqyosida diversifikatsiyalanganidan darak beradi. 2020-yilda pandemiyaga qaramasdan aktivlarning 3,39 trillion dollarga yetishi islom moliyasi tizimining iqtisodiy inqirozlarga nisbatan chidamliliginini ko'rsatadi. 2021-yilda 117 foizlik o'sish qayd etilgani esa bu sektorming an'anaviy moliya tizimiga nisbatan muqobil va jozibadorligini kuchaytirgan. Eng e'tiborlisi, 2026-yil uchun prognoz ko'rsatkichlari 5,9 trillion dollarga yetishini ko'rsatib, global islom moliyasi bozorining strategik o'sish potensialini ochib beradi. Shu bois, ushbu dinamikalar nafaqat musulmon davlatlarida, balki xalqaro moliya markazlarida

ham islomiy moliya infratuzilmasiga bo‘lgan qiziqishning keskin ortishini ilmiy asosda tasdiqlaydi.

3-jadval

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi va O‘zbekiston sharoitida islomiy moliya infratuzilmasini rivojlantirish qiyosiy tahlili

| Yo‘nalishlar | Malayziya tajribasi | Saudiya Arabistoni tajribasi | BAA tajribasi | O‘zbekiston imkoniyatlari va istiqbollari |
|----------------------------------|--|---|--|---|
| Huquqiy baza | 1983-yildan boshlab Islomiy bank qonuni qabul qilingan, AAOIFI va IFSB standartlari to‘liq joriy etilgan | Shariat kengashlari faoliyatiga asoslangan markazlashgan huquqiy baza mavjud | Maxsus Islomiy moliya qonunchiligi va erkin zonalarda alohida regulyatsiya amalda | O‘zbekiston 2020-yildan boshlab islom moliyasi bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqishni boshladi, ammo to‘liq qonunchilik bazasi hali shakllanmagan |
| Moliyaviy institutlar | 16 ta islomiy bank, 15 dan ortiq takaful kompaniyasi faoliyat yuritadi | Islomiy banklar barcha bank tizimining qariyb 70%ini tashkil etadi | Dubai Islamic Bank, Abu Dhabi Islamic Bank kabi yirik banklar faoliyat yuritadi | Toshkentda “Islomiy bank” loyihalari boshlangan, xalqaro IDB bilan hamkorlik mavjud |
| Moliyaviy instrumentlar | Sukuk emissiyasi keng rivojlangan, global sukuk bozorida 60% ulushga ega | Sukuk davlat byudjeti va infratuzilma loyihibarini moliyalashtirishda asosiy vosita sifatida qo‘llanadi | Sukuk emissiyasi xalqaro investorlarni jalb qilishda strategik vosita sifatida ishlataladi | Sukuk emissiyasi qonunchilik darajasida ko‘zda tutilgan, lekin amaliyot hali keng joriy etilmagan |
| Sug‘urta tizimi (Takaful) | Takaful kompaniyalar sug‘urta bozorining 16% ulushini tashkil etadi | Takaful orqali katta hajmli loyihibar risklari taqsimlanadi | Takaful mahsulotlari xalqaro standartlarga muvofiq taklif etiladi | Sug‘urta bozorida takaful joriy etish istiqbolli yo‘nalish sifatida ko‘rilmoxda, tajriba yetarli emas |
| Xalqaro integratsiya | IDB, IFSB, AAOIFI a’zosi, xalqaro hamkorlik yuqori darajada | IDBning asosiy a’zosi, global sukuk bozorining yirik o‘yinchisi | Islomiy moliya markazi sifatida xalqaro moliya oqimini jalb qiladi | IDB bilan hamkorlik bor, lekin xalqaro integratsiya cheklangan, global standartlarga moslashish davom etmoqda |
| Iqtisodiy samaradorlik | Islom moliyasi YAMning 30% gacha qismini moliyalashtiradi, iqtisodiy barqarorlikni oshiradi | Moliya tizimining asosiy ustunlaridan biri sifatida ishlaydi, diversifikatsiya imkonini beradi | Moliya oqimlarini boshqarishda islomiy moliya muhim rol o‘ynaydi | O‘zbekistonda iqtisodiy diversifikasiya va inkiyuziyani ta’minlash uchun katta katta imkoniyat mavjud, ayniqsa qishloq xo‘jaligi va infratuzilma loyihibarida |

Malayziya, Saudiya Arabistoni va Birlashgan Arab Amirliklari tajribasi shuni ko‘rsatadiki, islom moliyasi tizimini rivojlantirish uchun avvalo mustahkam huquqiy baza va xalqaro standartlarga mos regulyator mexanizmlar zarur bo‘ladi.

International Journal of Finance and Digitalization

Email: ijfdzu@gmail.com

Malayziya 1983-yildan boshlab Islomiy bank qonunini joriy qilgan bo'lsa, Saudiya Arabiston shariat kengashlari orqali bank tizimining qariyb 70 foizini islomiy moliyaga moslashtirgan, BAA esa erkin iqtisodiy zonalarda maxsus regulyatsiya orqali global kapitalni jalg etishda muvaffaqiyat qozongan. Shu bilan birga, ushu mamlakatlarda sukuk emissiyasi infratuzilma va yirik davlat loyihalarini moliyalashtirishning asosiy vositasi sifatida keng qo'llanilib, moliyaviy barqarorlikni oshirishga xizmat qilmoqda. Takaful sug'urta tizimining rivojlanishi esa risklarni adolatli taqsimlash orqali nafaqat iqtisodiy barqarorlikni, balki ijtimoiy himoya mexanizmlarini ham mustahkamlashda muhim rol o'yndaydi. O'zbekistonda esa islom moliyasi bo'yicha dastlabki normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilgan bo'lsa-da, amaliyotda sukuk, takaful va boshqa instrumentlarning keng qo'llanishi hali boshlang'ich bosqichda qolmoqda. Shu nuqtayi nazardan, rivojlangan mamlakatlar tajribasini qiyosiy o'rganish O'zbekiston uchun islomiy moliya infratuzilmasini shakllantirishda ham huquqiy, ham institutsional, ham xalqaro hamkorlik jihatlarida strategik yo'naliishlarni belgilash imkonini beradi.

4-jadval

O'zbekistonda to'laqonli islomiy moliya xizmatlarini taqdim etayotgan tashkilotlar[17]

| № | Tashkilot nomi | Faoliyat turi | Tashkilil topgan yili |
|----------|------------------------------------|------------------------------------|------------------------------|
| 1 | "Uzaro Yordam" MCHJ | Islomiy sug'urta | 2018 |
| 2 | "Iman halal investments" MCHJ | Mudoraba | 2018 |
| 3 | "Almulk capital invest group" MCHJ | Xalol investitsiya | 2018 |
| 4 | "Apex Takaful" AJ | Islomiy sug'urta | 2021 |
| 5 | "Taiba leasing" MCH XK | Ijara (islomiy lizing) | 2023 |
| 6 | "Trast Muamalat" MCHJ | Ijara(islomiy lizing va murobaha) | 2023 |
| 7 | "Asl Takaful" MCHJ | Islomiy sug'urta | 2024 |
| 8 | "Gross takaful" MCHJ | Islomiy sug'urta | 2021 |

4-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda to'laqonli islomiy moliya xizmatlari so'nggi yillarda jadal rivojlanib, turli yo'naliishlarni qamrab

olayotganini kuzatish mumkin, chunki 2018-yildan boshlab bir nechta yirik tashkilotlar faoliyat boshlagan. Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, dastlab “Uzaro Yordam” MCHJ va “Iman halal investments” MCHJ kabi subyektlar islomiy sug‘urta hamda mudoraba asosida faoliyat yuritishni boshlagan bo‘lsa, keyingi yillarda “Almulk capital invest group” MCHJ ham xalol investitsiya yo‘nalishini rivojlantira boshladi. 2021-yilda “Apex Takaful” AJ va “Gross takaful” MCHJ tashkil etilib, ular islomiy sug‘urtaning takomillashuviga hissa qo‘sghan bo‘lsa, 2023-yildan boshlab “Taiba leasing” MCH XK hamda “Trast Muamalat” MCHJ ijara va murobaha asosida lizing xizmatlarini taklif etmoqda. 2024-yilda esa yangi subyekt – “Asl Takaful” MCHJ paydo bo‘lib, mamlakatda islomiy sug‘urtaning kengayishini ta’minlamoqda, bu esa ushbu segmentning istiqboli yuqori ekanidan dalolat beradi. Shu tariqa, O‘zbekistonda islomiy moliya institutlari turli xil moliyaviy vositalarni joriy etib, investitsiya muhitini diversifikatsiya qilmoqda va xalqaro standartlarga yaqinlashmoqda.

Xulosa

Yuqoridagi tadqiqot va tahlillar asosida islom moliyasi modeli asosida moliya bozorini rivojlantirish yo‘llari bo‘yicha quyidagicha xulosa qilish mumkin:

Birinchidan, islom moliyasi modeli nafaqat shariatga mos moliyaviy mahsulotlarni yaratish, balki iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va ijtimoiy adolatni ta’minalashga qaratilganligi bilan an’anaviy moliya tizimidan tubdan farq qiladi. Ushbu modelning asosiy tamoyillari bo‘lgan foizsiz moliyalashtirish, risk va foydaning adolatli taqsimlanishi hamda real sektor bilan uzviy bog‘liqlik uni global moliya bozorida tobora muhim o‘rin egallashiga zamin yaratmoqda.

Ikkinchidan, xalqaro tajribada, xususan Malayziya, Saudiya Arabiston va BAAda, islomiy moliya infratuzilmasi samarali tashkil etilgani bu tizimning uzoq muddatli rivojlanish salohiyatini amalda tasdiqlab berdi. Ushbu davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, islomiy banklar, sukuk bozorining kengayishi va takaful sug‘urtasi iqtisodiyotning diversifikatsiyasiga xizmat qilib, xorijiy investitsiyalar oqimini ko‘paytiradi.

Uchinchidan, O‘zbekiston sharoitida islomiy moliya modelini joriy etish uchun huquqiy asoslarni takomillashtirish, shariat kengashlari va regulyator

mexanizmlarni yaratish bilan bir qatorda aholining moliyaviy savodxonligini oshirish ham muhim omil hisoblanadi. Chunki islomiy moliya infratuzilmasining to‘liq ishlashi nafaqat moliyaviy institutlar, balki keng jamoatchilikning ishonchi va faol ishtirokiga ham bevosita bog‘liqdir.

To‘rtinchidan, ilmiy manbalar va iqtisodchi olimlarning tadqiqotlari shuni tasdiqlaydiki, islomiy moliya bozorini rivojlantirish O‘zbekistonda moliyaviy inklyuziyani kengaytirib, ijtimoiy yo‘naltirilgan investitsiyalarni rag‘batlantiradi va milliy iqtisodiyot barqaror o‘sishini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Shu bois, islom moliyasi modeli asosida moliya bozorini rivojlantirish strategiyasi mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy taraqqiyot konsepsiyasida alohida ustuvor yo‘nalish sifatida qaralishi zarur.

Beshinchidan, islomiy moliya tizimida axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy mas’uliyatning ustuvorligi uni nafaqat moliyaviy instrumentlar majmui, balki jamiyatning ma’naviy va iqtisodiy taraqqiyotini qo‘llab-quvvatlovchi mexanizm sifatida shakllantiradi. Bu jihat uni barqaror rivojlanish maqsadlariga xizmat qiluvchi global moliyaviy model darajasiga ko‘taradi.

Oltinchidan, raqamli texnologiyalarni islomiy moliyaga integratsiya qilish orqali moliyaviy xizmatlarning samaradorligi oshishi, aholining keng qatlamlari uchun moliyaviy resurslarga qulay kirish imkoniyati yaratilib, mamlakatda raqamli iqtisodiyot va moliyaviy inklyuziya jarayonlari yanada jadallahishi mumkin.

Umuman olganda, islomiy moliya modeli asosida moliya bozorini rivojlantirish nafaqat resurslarni taqsimlashning muqobil mexanizmi, balki moliyaviy barqarorlik va iqtisodiy inklyuzivlikni mustahkamlovchi barqaror hamda axloqiy yondashuv sifatida ham ahamiyat kasb etadi. Xalqaro tajriba, xususan, Malayziya, Saudiya Arabistonи va BAA misolida ko‘rinib turibdiki, institutsional islohotlar, huquqiy muvofiqlashtirish va moliyaviy texnologiyalardagi innovatsiyalar islomiy moliyaning raqobatbardoshligini ta’minlashda hal qiluvchi omillar bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbekiston uchun ushbu tajribalarni milliy iqtisodiy ustuvorliklar bilan uyg‘unlashtirish moliya tizimini sezilarli darajada diversifikatsiya qilish, mahalliy va xorijiy investorlarni jalb etish hamda an’anaviy bank vositalariga qaramlikni kamaytirishga xizmat qiladi. Demak, islomiy moliyani rivojlantirish faqat yangi moliyaviy mahsulotlarni

yaratish bilangina cheklanib qolmasdan, balki infratuzilma, tartibga solish va inson kapitalini rivojlantirishda ham kompleks islohotlarni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. World Bank. Islamic Finance: A Catalyst for Shared Prosperity? // Global Islamic Finance Development Center. – 2016. – Report No. WBG-IFD-927 – p. 1–85.;
2. International Monetary Fund. Ensuring Financial Stability in Countries with Islamic Banking // IMF Policy Paper. – 2017. – Report No. IMF-PP-17/5 – p. 1–54.
3. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining qarori, 26.07.2024 yilda ro‘yxatdan o‘tgan, ro‘yxat raqami 3536 “Mikromoliya tashkilotlari tomonidan islomiy moliyalashtirishga oid xizmatlarni ko‘rsatish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”
4. Islamic Development Bank. Islamic Finance Outlook 2020 // Islamic Research and Training Institute (IRTI). – 2020. – Report No. IDB-IRTI-20/01 – p. 1–120.
5. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Statistik byulleteni, 2023-yil
6. Ernst & Young. World Islamic Banking Competitiveness Report 2016 // EY Global Financial Services. – 2016. – Report No. EY-WIBC-2016 – p. 1–78.
7. Chapra, M. U. The Global Financial Crisis: Can Islamic Finance Help? // International Journal of Islamic Economics and Finance Studies. – 2011. – Vol. 1, No. 1. – p. 9–24.
8. Iqbal Z., Mirakhор A. An Introduction to Islamic Finance: Theory and Practice. – Singapore: Wiley Finance, 2017. – p. 1–356.
9. Chapra M. U. The Future of Economics: An Islamic Perspective. – Leicester: The Islamic Foundation, 2016. – p. 1–289.
10. Saeed A., El-Gamal M. Islamic Finance: Law, Economics, and Practice. – Cambridge: Cambridge University Press, 2019. – p. 1–412.
11. Hassan K., Lewis M. Handbook of Islamic Banking. – Cheltenham: Edward Elgar Publishing, 2014. – p. 1–462.

12. El-Hawary D., Grais W. Regulating Islamic Financial Institutions: The Nature of the Regulated. – Washington, DC: World Bank Policy Research Working Paper No. 3227, 2020. – p. 1–48.

13. Ahmadjonov O. O ‘ZBEKISTONDA ISLOMIY MOLIYA TIZIMINI QO ‘LLASH ISTIQBOLLARI //QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI. – 2022. – T. 5. – C. 47-51.

14. Xalikov U. R. MAMLAKAT IQTISODIYOTINI ISLOM MOLIYA INSTRUMENTLARI ORQALI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI //YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT. – 2023. – T. 1. – №. 10. – C. 673-677.

15. International Monetary Fund. Ensuring Financial Stability in Countries with Islamic Banking // IMF Policy Paper. – 2017. – Report No. IMF-PP-17/5 – p. 1–54.

16. ICD – REFINITIV ISLAMIC FINANCE DEVELOPMENT REPORT 2022: EMBRACING CHANGE

17. G.A.Abduvosidova “ O‘zbekistonda islom moliysi mezon va tartiblarini joriy etish istiqbollari” dissertatsiya avtoreferati. T.: Iqtisod-moliya, 2024-y., 56-bet